

Sinf: 4-sinf | Fan: Matematika | Yondashuv: STEM asosida

Mashg'ulotning maqsadi

O'quvchilar uzunlik birliklari (m, dm, cm, mm) orasidagi nisbatni tushunadilar. Ular uzunlikni o'nlik kasrlar ko'rinishida yozishni, $1 \text{ m} = 10 \text{ dm} = 100 \text{ cm}$ kabi bog'liqlikni amaliy misollar orqali o'zlashtiradilar.

Mashg'ulot davomiyligi

45 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar 4-sinf Matematika darsligidagi **Uzunlikni o'nliklar ulushi ko'rinishida yozish** mavzusidagi topshiriqlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

$1 \text{ metr} = 10 \text{ detsimetr} = 100 \text{ santimetr} = 1000 \text{ millimetr}$

O'nlik ulushga o'tkazish:

$$20 \text{ cm} = 0,2 \text{ m}$$

$$75 \text{ cm} = 0,75 \text{ m}$$

$$1 \text{ m } 25 \text{ cm} = 1,25 \text{ m}$$

Asosiy qoida: kichik birlik $\rightarrow$ katta birlikka o'tkazishda bo'linadi, aksincha bo'lsa – ko'paytiriladi.

Amaliy mashg'ulot: "O'lchab yozamiz"

Mashg'ulot maqsadi: O'quvchilar haqiqiy predmetlarning uzunligini o'lchab, metrda o'nlik kasr ko'rinishida yozishni o'rganadilar.

Mashg'ulot bosqichlari:

1. Jismni o'lchash (Texnologiya integratsiyasi):

- Chizg'ich, lenta yoki o'lchagich bilan parta, kitob, daftar uzunligi o'lchanadi
- Natija cm da yoziladi, keyin m ga o'nlik kasr sifatida o'tkaziladi

2. O'nlik ko'rinishga aylantirish:

- $60 \text{ cm} = 0,6 \text{ m}$
- $1 \text{ m } 40 \text{ cm} = 1,4 \text{ m}$

– Jadvalga kiritish va taqqoslash

3. Informatika integratsiyasi:

– Excel: cm kiritiladi → avtomatik tarzda m da ko'rsatadi ($=A1/100$)

STEM fanlar bilan integratsiyasi

Matematika

– O'lchov birliklari o'rtasidagi bog'liqlik

– O'nlik kasrlar orqali ifodalash

– Solishtirish

Texnologiya

– Jismni aniq o'lchash

– Eshik, stol, qog'oz kattaligini grafikda chizish

Informatika

– Excel: formulalar orqali avtomatik o'zgartirish

Tabiiy fanlar

– Tana uzunligi, daraxt balandligi, o'sish tezligi kabi uzunliklar o'lchami

Qiziqarli fakt

 Dunyodagi eng uzun chiziq – Xitoy devori, u 21 196 000 metr = 21 196 km!